

BARQAROR TARAQQIYOTGA TAHDIDLAR VA ULARGA QARSHI KURASHISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY USULLARI

Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi

Toshkent davlat transport universiteti,

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası doktoranti

Annotatsiya: Maqolada bugungi dunyoda kechayotgan ijtimoiy jarayonlar tahlil etilib, ularning mamlakatlar barqaror taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta’siri o‘rganilgan. Ayniqsa, g‘oyaviy – mafkuraviy tahdidlarning tobora kuchayib borayotganligi, shu bois ularga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari zarurligi ta’kidlangan va bu borada kerakli taklif va tavsiyalarr bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror taraqqiyot, globallashuv, tahdid, kurash, ma’naviyat, mafkura.

Аннотация: The article analyzes the social processes taking place in the world today and studies their impact on the sustainable development of countries. In particular, it emphasizes the increasing intensity of ideological threats, and therefore the need for effective mechanisms to combat them, and presents the necessary proposals and recommendations in this regard.

Keywords: sustainable development, globalization, threat, struggle, spirituality, ideology.

Hozirgi kunda mamlakatlarning barqaror taraqqiyotini ta’minlash masalalarining dolzarblashuvi insonning jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshirmoqda. Bugungi ijtimoiy-mafkuraviy jarayonlar inson ongi va qalbi uchun yo‘naltirilganligi hech kimga sir emas. Insonning ongi va qalbi egallash uchun bo‘layotgan kurashlar tobora avj olib, turli ko‘rinishlarda olib bormoqda. Shu o‘rinda Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyovning fikriga e’tibor qaratish zarur: “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga

berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy”¹.

Darhaqiqat, bugungi davrda inson ongi va qalbi uchun kurashning turfa usullari yaratilib, bunda axborot vositasida ijtimoiy fikrni shakllantirib, rivojlantirish bilan bir qatorda axborot xurujlari ham yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Zero, hozirgi zamon o‘zgarishlari juda shiddatli tarzda o‘zgarmoqda. Xalqaro ijtimoiy tahdidlar ta’siridagi jarayonlar jamiyat hayotiga keskin tarzda o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan chetda tura olgan birorta ham davlat yo‘q, deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Bu shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g‘ayri ixtiyoriy ta’sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviy saloxiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog‘liq, Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Bu hodisani chuqur o‘rganmay turib unga moslashish, kerak bo‘lganda, uning yo‘nalishini tegashli tarzda o‘zgartirish mumkin emas. Globallashuv shunday jarayonki, uni chuqur o‘rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma’naviyatini begona qo‘llarga topshirib qo‘yish bilan baravar bo‘ladi. Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o‘tkazgan va o‘tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan guvohlik beradi. Globallashuv milliy ma’naviyatga ham ta’sir o‘tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma’naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo‘lgandagina natija berishini unutmasligimiz lozim. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko‘proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo‘nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq

¹ Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси Халқ сўзи. 2017 йил 5 август.

va taxlil qilish zarur. Globallashuvning milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan va o'tkazishi mumkin bo'lgan ta'siri haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bizlar ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim.

Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqlari ma'naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma'naviyat cho'qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Bizga ta'sir o'tkazayotgan yoki ta'sir o'tkazmoqchi bo'layotgan g'oyalarning qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Ijtimoiylashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalarini yaratish ilmiy-amaliy hamda falsafiy jihatdan tadqiq etildi. Ijtimoiylashuvning mazmun-mohiyatini chuqurroq o'rganish, mamlakatimiz tinchligi va barqarorligiga tahdid soluvchi g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlarini ilmiy-falsafiy tahlil etish hamda milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni turli xil g'oyaviy, mafkuraviy va axborot tahdidlardan himoya qilish uchun samarali, ta'sirchan vositalarni, zamonaviy mexanizm va texnologiyalarini yangi ilmiy dalillar orqali aniqlash va ko'rsatib berish bizning asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti hech bir O'zbekistonlikni befarq qoldirmasligi kerak. Chunki ular o'z Vatanining qanday mashaqqatli, azobli asrlarni o'tkazib, mustaqillikka erishganligini yaxshi biladilar. Shunday ekan, har bir O'zbekistonlik millatidan, dinidan, tug'ilgan joyidan, kasbu yoshidan qat'iy nazar Vatan posboni bo'lishi lozim. Demak, mamlakatimizning xavfsizligi uchun eng birinchi kafolat –O'zbekistonliklarning milliy g'oyasi atrofidagi jipsligidir. Shu tariqa milliy g'oya bizni o'tmishimiz, hozirgi hayotimiz va kelajagimiz bilan bog'lab turadi. Shu sababli O'zbekiston xalqining milliy g'oyasiga asoslangan immuniteti – Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylanadi.

Yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan asrash masalasi har doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida ushbu masala ko'pchilik mamlakatlar uchun birinchi raqamli muammolar qatoridan joy olmoqda. Albatta, davlatlar orasida olamshumul ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy – huquqiy, madaniy – ma'rifiy axborotlarning almashinuvi hisoblangan globallashuvning ijobiy jihatlari juda ko'p. Lekin, o'zida milliy chegaralarning yuvilib ketishi kabi xususiyatlarni qamrab olgan globallashuvning bir qator salbiy tomonlari ham mavjuddir. Xalqimiz tafakkuriga begona bo'lgan turli xil zararli g'oya va mafkuralarning kirib kelishi shulardan biridir. Xalqimizni, xususan, yoshlarimizni ana shunday begona va zararli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ularni ongiga milliy g'oyani singdirish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Barchamizga ma'lumki, so'ngi yillarda jamiyatimizning orzu-umidlarini o'zida mujassamlashtirishi kerak bo'lgan «milliy g'oya» atrofida ko'p gap-so'zlar bo'ldi va bo'layotir. Bizning nazarimizda, bu o'rinda milliy degan iborni qo'llamasligimiz maqsadga muvofiqdir. Uning o'rniga jamiyatimiz g'oyasi yoki xalqimiz g'oyasi deb nomlash ma'qul. Milliy iborasi masala doirasini tor qilib qo'yishi mumkin. Keyin, xalq g'oyasini shakllantirar ekanmiz, balandparvoz, mujmal va tushunarsiz shiorlardan voz kechishimiz zarur. Aksincha, odamlarning real orzu-umidlarini ifodalaydigan g'oyalarni izlab topishimiz va ularni ilgari surishimiz shart. Bu g'oyalar kishilarning qalbidagi ezgu maqsadlarni o'zida mujassamlashtirib, ularni ruyobga chiqishi barchani birdek qanoatlantirishi zarurdir. Shu bois, ushbu g'oyalarni amalga oshirish jarayonida hamma insonlar bir tanu-bir jon bo'lib harakat qiladilar. Hech kim shunchaki oddiy tomoshabin sifatida qarab turmaydi. Hamma o'z faoliyatini ijtimoiy munosabatlarning muhim elementi sifatida muvofiqlashtirib boradi. Hamma baxtli yashashni xohlaydi. Har kim oilasi, yaqinlari davrasida tinch-osoyishta, emin-erkinlikda va to'kin-sochinlikda, Alloh ato etgan hayot ne'matlaridan to'liq baxramand bo'lgan holda umrguzaronlik qilishni istaydi. Forobiyning ta'kidlashicha, insonning «Baxtga erishishining zaruriy sharti bu ilm-fanni o'rganish va nazariy bilimlarni o'zlashtirishdir».

Bizlar yashayotgan bugungi davr shiddatli jarayonlar ichida kechmoqda. Va bular orasida ham ijobiy, ham salbiy o'zgarishlar birdek mavjuddir. Hozirda xalqimizni,

xususan, yoshlarimizni turli xil g'oyaviy, ijtimoiy-mafkuraviy va axborot xurujlaridan saqlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Bizning fikrimizcha, bu borada quyidagi innovatsion yondashuvlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, ma'lumki, bugungi kun mafkuraviy kurashlar avj olgan davr hisoblanadi. Turli-tuman g'oyaviy kuchlar o'z ta'sir doirasini kengaytirish uchun tinimsiz ish olib borishmoqda. Bu jarayon mamlakatimiz hayotiga ham daxldordir. Zero, har-xil g'oya va mafkuralar bizning yurtimizga ham kirib kelmoqda. Ming afsusuki, ular orasida bizga begona bo'lgan, zararli g'oya va mafkuralar ham bor. Ularga qarshi turish uchun avvalo, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish talab etiladi. Mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning esa bir qator muhim omillari mavjud bo'lib, shulardan eng muhimlaridan biri kitobxonlik madaniyatini o'stirishdir. Albatta, bu borada yurtimizda juda kata ishlar amalga oshirilmoqda. Tuman, viloyat va respublika miqyosida o'quvchi-yoshlar o'rtasida yosh kitobxon tanlovini o'tkazilishi va boshqa tadbirlarni amalga oshirilishi tahsinga loyiqdir. Bizning nazarimizda, bu ishlarni yanada davomli va samarali tashkil etish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Maktab direktori kubogi», oliy ta'lim muassasalarida «Rektor kubogi» nomli kitobxonlik tanlovlarini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

«Maktab direktori kubogi» nomli kitobxonlik tanlovini umumiy o'rta ta'lim maktablarida quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi:

1-bosqich. Bunda sinflar kesimi doirasida kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib har bir sinfdagi eng yaxshi kitobxon o'quvchi aniqlanadi va keyingi bosqichga yo'llanma oladi.

2-bosqich. Bunda aniqlangan eng yaxshi kitobxon o'quvchilar o'zlari o'qiyotgan sinflarga mansublik holatidan kelib chiqqan holda quyidagi to'rtta toifalardan birida musobaqani davom ettiradilar.

1. 1-4 sinf o'quvchilari doirasida.
2. 5-6 sinf o'quvchilari doirasida.
3. 7-8-9 sinf o'quvchilari doirasida.
4. 10-11 sinf o'quvchilari doirasida.

Yoshdagi nisbatni inobatga olgan holda yuqoridagi to'rtta toifa doirasida g'olib bo'lganlarni barchasiga «Maktab direktori kubogi» topshirilishi maqsadga muvofiq

bo'lardi. Shuningdek, g'olib kitobxon-o'quvchilarni ota-onalariga tashakkur xatlarini yuborilishining ahamiyatini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

«Rektor kubogi» nomli kitobxonlik tanlovlarini oliy ta'lim muassasalarida ham ikki bosqichda o'tkazish tavsiya etiladi:

1. Bosqichda fakultet yoki bo'limlar miqyosida kitobxon-talaba tanlovi o'tkaziladi. Bunda fakultet yoki bo'limlardagi guruhlarda tahsil oluvchi talabalar ushbu tanlovda qatnashishadi. G'olib bo'lgan eng yaxshi 1 nafar talaba «Dekan kubogi»ga ega bo'ladi va 2-bosqichga, institut miqyosidagi tanlovga yo'llanma oladi. Talabaning ota-onalariga ham tashakkur xatlari yuboriladi.

2. Bosqichda fakultet yoki bo'limlar miqyosida 1 o'rinni egallagan kitobxon-talabalar o'rtasida o'tkaziladi va g'olib bo'lgan talaba «Rektor kubogi»ga sazovor bo'ladi. Talabaning ota-onalariga ham tashakkur xatlari yuboriladi.

Aytish kerakki, yuqorida qayd etilgan «Maktab direktori kubogi» va «Rektor kubogi» nomli kitobxonlik tanlovlarini o'tkazilishi o'quvchi va talabalar o'rtasida kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni uyg'otib, kitobxonlik madaniyatini o'stirishga xizmat qiladi. «Maktab direktori kubogi» va «Rektor kubogi»ga sazovor bo'lganlarga boshqa tengdoshlari havas bilan qarashadi va ularga o'xshashga harakat qilishadi. Buning uchun esa ular ham ko'p kitob o'qish lozimligini tushunib, shunga intilishadi. Ko'p kitob o'qigan o'quvchi-talabalarning esa dunyoqarashlari kengayib, fikrlash doiralari teranlashadi. Turli xil mafkuraviy xurujlar ta'siriga berilmaydilar.

Ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim – tarbiyasida maktabning o'z o'рни va ahamiyati bor. Zotan har bir insonning ma'rifatga qo'ygan ilk qadami maktabdan boshlanadi. Muhtaram Prezidentimizning oqilona siyosatlari mamlakatimizda keyingi yillarda xalq ta'limi tizimiga munosabat ijobiy tomonga qarab tubdan o'zgarimoqda. O'qituvchilarning moddiy ahvoli yaxshilanib, jamiyatda o'qituvchi maqomining o'rnini oshirish yo'lida tizimli ishlar olib borilayotir. Shuningdek, eskirgan maktablarni kapital ta'mirlash yoki qaytatdan qurish hamda maktablarni moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi va kelgusidagi maqsadli ishlar rejalashtirib olingan. Biz pedagoglarning asosiy vazifalarimizdan biri yurtimizda olib borilayotgan shu kabi

bunyodkorlik ishlarini yoshlarimizga yetkazishdan iboratdir. Shunday ekan, umumta'lim maktablarida, Akademik litseyi, kasb-hunar kollejlarda va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga tegishli fanlar doirasida "Mening maktabim – mening iftixorim" mavzusida mustaqil ish topshiriqlarini bajarish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi asosiy savollarni o'rtaga qo'yish va ularga javob izlash orqali ushbu mavzuni batafsil tahlil etish mumkin:

1. Maktab tarixini o'rganish;
2. Maktabni boshqargan maktab raxbarlarining faoliyati;
3. Maktab tarixida faoliyat ko'rsatgan o'qituvchilar haqida ma'lumot to'plash;
4. Turli yillarda maktabni tamomlagan, o'z tanlagan kasb-hunarlarida yuksak natijalarga erishib, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan sobiq bitiruvchilar haqida;
5. Mening maktabim bugungi kunda;
6. Maktabni hozirgi binosi va moddiy – texnik bazasi haqida;
7. Hozirgi kunda maktabda o'qiyotgan o'quvchilar va ularga ta'lim berayotgan o'qituvchilar haqida;
8. O'quvchining o'z maktabiga qanday foydasi tegishi mumkinligi haqida.

"Mening maktabim – mening iftixorim" mavzusidagi mustaqil ishlar yozma matnli, albom sxema yoki elektron taqdimot shakllarida bajarilishi mumkin. Mustaqil ish matnini kompyuter vositasida bosib chiqarishda Microsoft Word matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi. Taqdimot usulidagi slaydlar Power Point dasturida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu mavzuda alohida O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida qiziqarli ma'naviy – ma'rifiy tadbir o'tkazish hamda maktab va institut kutubxonasida eng yaxshi taqdimotlarning ko'rgazmasini tashkil etib, u bilan barchaning tanishishi uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, hech shubha yo'qki, insonning jamiyatda o'z o'rnini topib, mazmunli umrguzaronlik qilishida oliy ta'lim muassasalarining ham ahamiyati beqiyosdir. Negaki, oliy ta'lim insonlarning o'z hayotlaridagi maqsad-muddaolariga erishishlarida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois shu kunlarda boshqa sohalarda bo'lgani kabi oliy ta'lim tizimida ham olamshumul o'zgarishlar ro'y

bermoqda. Bu o'zgarishlar mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'qishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratib berilib, auditoriyalar zamon talablari asosida ta'mirlangan va jihozlangan. O'quv tajriba laboratoriyalari va amaliyot maydonchalaridan barcha zarur anjomlar mavjud. Shunday ekan bu yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish, bor e'tiborni va imkoniyatni o'qishga qaratmoq lozim. Biz ham shu talablardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga tegishli fanlar doirasida "Mening institutim (universitet, akademiya) – mening kelajagim" mavzusida mustaqil ish tayyorlashlarini tavsiya etamiz. Bu mavzudagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda ham albatta bir qator ustuvor savollarni tuzish zarurdir:

1. Oliy ta'lim muassasining tarixi haqida;
2. Oliy ta'lim muassasining dekanatlari, kafedralari, bo'limlari to'g'risida;
3. Oliy ta'lim muassasida tahsil olayotgan talabalar va ular ta'lim– tarbiya berayotgan professor – o'qituvchilar haqida;
4. Oliy ta'lim muassasining mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni;
5. Mazkur oliy ta'lim muassasini tamomlab, ayni kunlarda ma'suliyatli lavozimlarda faoliyat ko'rsatayotgan sobiq talabalarning ibratli hayot yo'llari to'g'risida;
6. Talabaning nima uchun ushbu oliy ta'lim muassasini tanlaganligi haqida;
7. Talabaning o'zi o'qiyotgan mutaxassislik haqida nimalar bilishi to'g'risid;
8. Yuqori malaka va yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan pedagog-murabbiylar hamda ustozlar haqida.

Mustaqil ish topshiriqlari yozma matnli, tayyor albom yoki taqdimot usulida tayyorlanishi mumkin. Oraliq nazorat ishi matnini kompyuter vositasida bosib chiqarishda Misrosoft Word matn redaktoridan foydalanish tavsiya qilinadi. Taqdimot usulidagi slaydlar Power Point dasturida amalga oshiriladi. Berilgan rasm, sur'at tagida sharh yozilishi kerak. Taqdimotning elektron varianti ham topshirilishi zarur. Mustaqil ish topshiriqlarini topshirish darsdan keyin belgilangan jadval asosida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ish topshiriqlarini himoyasiga puxta tayyorgarlik ko'rish kerak, chunki ish qanchalik puxta, sifatli, yaxshi yozilgan bo'lmasin, uni himoya qilish jarayonidagi kamchiliklar mustaqil ish bahosini pasaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan mavzulardagi mustaqil ish topshiriqlari o'quvchi, talaba va yoshlarni o'zlari uchun kerakli va foydali vazifalarni bajarish uchun yo'naltiradi. Mazkur mavzulardagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarish jarayonida yoshlarda o'zligini anglashga intilish, o'z tarixidan va yurtidan g'ururlanish, o'zi ta'lim – tarbiya olgan maktab va oliy ta'lim muassasidan faxrlanish tuyg'usini shakllantirib, buyuk yurtdoshlarining ibratli faoliyalaridan o'rnak olish hissini rivojlantiradi. Bularni hammasi bitta bo'lib yoshlarimizning mafkuraviy immunitetlari mustahkamlab, ularni bugungi shiddatli globallashuv sharoitida turli ijtimoiy-mafkuraviy xurujlar ta'siriga tushib qolish xavfidan saqlanishga katta yordam beradi.

REFERENCES

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси Халқ сўзи. 2017 йил 5 август.
2. Салимов Бахриддин Лутфуллаевич ,Ҳасанов Миршод Нўъмонович. ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 2, Issue 4, 2022. -P.1345-1354.
3. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISLOHOTLAR TRANSFORMATSIYASI. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. 2024, [1/11/1]. 209-211 b.